

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI «Pedagogika-psixologiya» KAFEDRASI
HUZURIDAGI “Zamonaviy pedagoglar” TO‘GARAGI
TO‘G‘RISIDA

N I Z O M

I. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son, «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida » PF-60-sonli Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida Ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida »gi PQ-3775-son hamda 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy, ijodiy to‘garaklarni tashkillashtirish tartibi va qoidalari asosida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti (keyingi o‘rinlarda – fakultet deb yuritiladi) «Maktabgacha ta’lim» kafedrasida (keyingi o‘rinlarda – kafedra deb yuritiladi) huzurida tashkil etilgan «Zamonaviy pedagoglar» to‘garagi faoliyatini tartibga soladi.

2. To‘garak o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Hay’at qarorlari, tegishli buyruqlari, Psixologik xizmat to‘g‘risida Nizomga, institut Kengashi qarorlari va rektor buyruqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

3. To‘garak faoliyati To‘garak rahbari, 1 nafar professor o‘qituvchi va jamoatchilik asosida, ma’lum pedagog rahbarligida tashkil etiladi.

4. To‘garak Nizomi fakultet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

5. To‘garak rahbari va a’zolari o‘quv semestri davomida kafedra majlisida kamida bir marta hisobot beradi.

6. To‘garak qamrovi va ish shakllarini faoliyat natijalariga ko‘ra kengaytirish mumkin. Shuningdek, to‘garak ish faoliyatini takomillashtirish va yaxshilash maqsadida Nizomga qo‘shimcha va takliflar kiritish kafedra yoki fakultet yig‘ilishlari qarorlari asosida amalga oshiriladi.

7. To'garak rahbari faoliyati mazkur Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

8. To'garak o'z logotipi, belgisi va ko'krak nisohniga ega bo'lishi mumkin.

II. TO'GARAKNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

9. To'garakning asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarning dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish;

- talabalar ongiga Pedagogika va psixologiya fanlari mazmun-mohiyatini singdirish;

- to'garak a'zolari tasavvurida pedagogik va psixologik ta'limotlar va fan doirasidagi

amaliy ishlarga bo'lgan hurmat va e'tiborni oshirish;

- psixologik bilimlarni o'qitish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda o'z millati va milliy tarbiyamiz bilan faxrlanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- tizimli yondashuv asosida erkin va mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyati, bilim ko'nikmalariga ega, madaniyatli va saviyali kadrlarni tayyorlash;

- talabalarning mashg'ulotlarda egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga tatbiq etishlari uchun zaruriy ma'lumotlar berish;

- iste'dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to'liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash,

- talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish;

- talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq pedagogika sohasida ularning ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ijodkor yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, ularni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish;

- talabalarning bo'sh vaqtini maqsadli va mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab rivojlantirish;

- to'garak a'zolarida ilmiy maqola yozish ko'nikma va malakalari shakllanishiga zamin yaratish, bu borada fanga oid ilmiy izlanishlar va sohaga nisbatan qiziqishini oshirish;

- talabalarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida, ilmiy-ijodiy natijalarini tijoratlashtirish va qo'shimcha ish joylarini topishiga ko'maklashish;

- xalqaro hamkorlikni tashkil etishda Internet orqali guruhning ish faoliyati va yutuqlarini targ'ib etuvchi Veb-sahifa ochib, muntazam ravishda ilmiy-ijodiy faoliyatlarini yoritib borish;

- to'garakda ijodiy, innovasion muhitni yaratish va ushbu jarayonda faol qatnashish.

III. TO‘GARAK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

10. To‘garak faoliyati fakultet Kengashi qarori asosida tashkil etiladi.
11. To‘garakka kafedraning yetakchi va tajribali professor-o‘qituvchilari, stajyor-tadqiqotchi izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchilar rahbarlik qilishi mumkin.
12. To‘garak faoliyati o‘quv yilining boshidan, ya‘ni 1-oktyabrdan kechiktirilmay boshlanishi ta‘minlanadi.
13. To‘garak rahbari talabalarni to‘garak ishi va uning mazmun mohiyati bilan tanishtiradi hamda iqtidorli talabalarni to‘garakka jalb etadi.
14. To‘garak ishtirokchilari soni 5 nafar talabadan kam bo‘lmasligi kerak.
15. To‘garak jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatishi munosabati bilan to‘garak mashg‘ulotlarining soati kafedra va talabalar bilan kelishilgan holda belgilanadi.
16. To‘garak mashg‘ulotlarining rejasi tegishli o‘quv yiliga mo‘ljallangan bo‘lib, u to‘garak rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra majlisi qarori bilan tasdiqlanadi.
17. To‘garakka kafedraga birlashtirilgan xonalardan biri ajratiladi va u o‘garak yo‘nalishiga oid vositalar bilan jihozlanadi.
18. To‘garak mashg‘ulotlarining jadvali kafedra tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan joyga osib qo‘yiladi. To‘garak 1 oyda 4 marta o‘tkaziladi.

IV. TO‘GARAK FAOLIYATI ISHTIROKCHILARI

19. To‘garak a‘zolari va kafedra pedagog xodimlari to‘garak ta‘limi jarayonining ishtirokchilari hisoblanadilar.
20. To‘garakning muayyan bir guruhiga a‘zolari qabul qilishda ularning yoshi, kursi, dunyoqarashi, psixo-fiziologik xususiyatlari va jismoniy holatiga e‘tibor beriladi.
21. To‘garak a‘zolarining huquqlari:
 - to‘garakka ixtiyoriy ravishda a‘zo bo‘lish;
 - to‘garak (kafedra)ning moddiy-texnik bazasidan foydalanish;
 - bir necha to‘garaklarda qatnashish, yil davomida qiziqish va istaklariga qarab boshqa to‘garaklarga o‘tish;
 - to‘garakning jamoatchilik asosidagi boshqaruv organlariga saylash va saylanish;
 - to‘garak faoliyatiga oid o‘z takliflarini bildirish;
 - turli tanlov va musobaqalarda ishtirok etish.
21. To‘garak a‘zolarining majburiyatlari:
 - O‘zbekiston Respublikasining Qonun va qonunosti hujjatlariga, Institut odob-axloq qoidalari, “Sharaf kodeksi”ga rioya qilish;
 - Institut, fakultet va kafedraning ichki tartib-qoidalariga qat’iy rioya etish;
 - sababsiz mashg‘ulot qoldirmaslik, to‘garak rahbari tomonidan berilgan

- topshiriqlarni o'z vaqtida mas'uliyat bilan bajarish;
- to'garak mashg'uloti uchun zarur bo'lgan o'quv qurollarini olib kelish;
- o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini mustaqil egallash ko'nikmasini hosil qilish va uni amalda qo'llash;
- to'garak mashg'ulotlarida texnika xavfsizligi va sanitar-gigiyenik oidalarga amal qilish.

22. Jamoat tartib-qoidalarini buzgan, to'garak xonasidagi vositalar, fakultet va kafedraning jihozlariga zarar yetkazgan talabaga nisbatan chora ko'riladi yoki uning ota-onasi hisobidan yetkazilgan zarar miqdori qoplanadi.

23. To'garak rahbarining huquqlari:

- o'z kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- to'garak a'zolaridan kafedra va to'garakning ichki tartib -qoidalariga rioya etilishini talab qilish;
- to'garak Nizomiga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqish.

24. To'garak rahbariga kafedra bilan kelishgan holda boshqa huquqlar berilishi mumkin.

25. To'garak rahbarining vazifalari:

- talabalarning bo'sh vaqtlarini to'garaklar orqali tashkil etish, ularning Ta'lim olish huquqini ta'minlash;
- to'garak yo'nalishi bo'yicha talabalar bilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asosida talim berish;
- to'garak faoliyati jarayonida yangi va ilg'or ta'lim metodlaridan samarali foydalanish;
- to'garak mashg'ulotlarining o'quv dasturlarini talabalarning xohish istaklari, qiziqishlari, yoshi, psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida, shuningdek, ilmiy-metodik tamoyilga tayangan holda takomillashtirib borish;
- o'zining nazariy bilim darajasini, pedagogik mahorati va kasb malakasini uzluksiz ravishda oshirib borish va o'z ustida muntazam ishlash;
- muassasada, jamoat orasida o'z obro'si, ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan boshqalarga o'rnak bo'lish;
- ochiq mashg'ulotlar, seminarlar va shu kabi tadbirlarni o'tkazish;
- boshqa to'garak mashg'ulotlariga kirib, mashg'ulot tahlillarini o'tkazish va o'zaro uslubiy yordam ko'rsatish;
- faol to'garak a'zolarini rag'batlantirib borish.

Shuningdek, to'garak rahbari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

V. TO'GARAKNI BOSHQARISH

26. Kafedra to'garak muassasasi hisoblanadi va to'garak faoliyati ushbu kafedra tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

27. Kafedraning to'garak faoliyatini boshqarish borasidagi vakolatlari:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
- to'garaklar faoliyatini muvofiqlashtirish va ilmiy-metodik rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- ta'limning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

VI. YAKUNIY QOIDALAR

28. To'garak faoliyati bilan bog'liq muammoli masalalar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Ushbu Nizom Pedagogika fakulteti "Pedagogika-psixologiya" kafedrasining

2025-yil 23-sentyabrdagi majlisida muhokama qilingan (bayonnoma №3).

Kafedra mudiri:

To'garak ishlari bo'yicha mas'ul:

D.Boboqulova

B.Shaximardonova

TO'GARAK QATNASHCHILARI RO'YXATI

№	Talabalarning ismi sharifi	Kurs	Guruh	Ta'lim yo'nalishi
1.	Toshtemirova Sevinch	2	208	Ona tili va adabiyot
2.	Meliqulova Muhsina	2	208	Ona tili va adabiyot
3.	Pardayeva Aziza	2	208	Ona tili va adabiyot
4.	Normurodova Malihat	2	208	Ona tili va adabiyot
5.	Akbaraliyeva Sevinch	2	207	Ona tili va adabiyot
6.	Shaminova Dilbar	2	207	Ona tili va adabiyot
7.	Menglimurodova Nargiza	2	207	Ona tili va adabiyot
8.	Xurramova Sevinch	2	207	Ona tili va adabiyot
9.	Turabova Rayxona	2	207	Ona tili va adabiyot
10.	Xaydarova Anora	2	209	Ona tili va adabiyot
11.	Safarova Sevinch	2	209	Ona tili va adabiyot
12.	Mamarajabova Mashhura	2	209	Ona tili va adabiyot

Izoh: “Zamonaviy pedagoglar” to’garagi haftaning _____ kuni soat ____⁰⁰ da boshlanadi.

To’garak rahbari: o’qituvchi Shaximardonova Baxtigul

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika-psixologiya kafedrasi qoshidagi “Zamonaviy pedagoglar” to’garagining monitoringi

№	Talabaning F.I.Sh.										
	Sana										
1.											
2.											
3.											
4.											
5.											
6.											
7.											
8.											
9.											
10.											
11.											
12.											

To’garak rahbari:

o’qituvchi B.Shaximardonova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika-psixologiya kafedrası qoshidagi “Zamonaviy pedagoglar” to’garagining monitoringi

№	Talabaning F.I.Sh.										
	Sana										
1.											
2.											
3.											
4.											
5.											
6.											
7.											
8.											
9.											
10.											
11.											
12.											

[illegible]

o'qituvchi B.Shaximardonova

“Zamonaviy pedagoglar” to’garagining rejasi

№	Mavzular	Soat	Dars o’tilgan vaqti	Imzo
1	Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to’g’risidagi fan	2		
2	Shaxsning rivojlanishi	2		
3	Ta’limni tashkil etish shakllari va turlari	2		
4	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	2		
5	Tarbiya haqida sharq allomalarining fikrini o’rganish	2		
6	. Tarbiyaning umumiy metodlari	2		
7	Tarbiya turlari	2		
8	Tarbiya haqida g’arb allomalarining fikrlari	2		
9	O’quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish	2		
10	Didaktika – ta’lim nazariyasi sifatida. O’qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.	2		
11	Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi	2		
12	Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta’siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.	2		
13	Ta’lim muassasasi menejmenti	2		
14	Xalqaro baholash dasturlari (TALIS)	2		
15	Korreksion pedagogika asoslari	2		
16	Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	2		
17	VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O’rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar . Sharq Uyg’onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.	2		

18	XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.	2		
19	XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji	2		
20	XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.	2		
21	1924-1991 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.	2		
22	Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi..	2		
23	XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.	2		
24	Y.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi	2		
25	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.	2		
26	Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari	2		
27	Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.	2		
28	O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat	2		
29	Kommunikativ malakalar va ta’sir ko‘rsatish. O‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi	2		
30	Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika. Nutq texnikasi va madaniyati.	2		
31	Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari	2		
32	Hadis ilmi va uning tarviyaviy ahamiyati	2		
33	Abu Nasr Forobiyning pedagogik g‘oyalari.	2		
34	Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida	2		
35	Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariyning ta’limiy-axloqiy qarashlari	2		
36	Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.	2		

Treninglar

“Мен ҳеч қачонмаганман”.

Иштирокчилар навбатма-навбат «Мен ҳеч қачонмаганман» деган жумладан иборат гап айтишлари лозим (масалан, «Мен ҳеч қачон парашютдан сакрамаганман», «Мен ҳеч қачон денгизда чўмилмаганман», «Мен ҳеч қачон сигарет чекмаганман» ва ҳ.к.). Қолган иштирокчилар эса,

айтилаётган гаплар, агар улар учун нотўғри бўлса бармоқларини букиб борадилар. Яъни, масалан, бирор иштирокчи парашютдан сакраган бўлса, битта бармоғини букади, кейинги иштирокчи томонидан айтилган гап ҳам унинг учун нотўғри бўлса (яъни у денгизда чўмилган бўлса) яна битта бармоғини букади ва ҳ.к. 10 та гап айтилганидан сўнг кимнингдир бармоқларидан бирортаси ёки бир нечтаси букилмасдан қолган бўлса, ўша ютади. Бошловчи иштирокчиларни олдиндан айтилаётган гаплар ҳаётий бўлиши лозимлиги ва бармоқларни адолатли букиш лозимлиги ҳақида огоҳлантириши керак. Жинс хусусиятларини эътиборга олмасдан гап айтган иштирокчи ютқазади. Бир хил ҳаёт тарзига эга бўлган одам (букилмаган бармоқлари қанча кўп бўлса) ютади, аксинча бой ҳаётий тажрибага эга бўлган одам (барча бармоқлари букилган) ютқизади. Ўйин шу тарзда барча иштирокчилар биттадан гап айтгунларича давом эттирилади.

«Қадриятлар».

Мақсад: *Шахсий қадриятлар иерархияси тузилиши муҳимлигининг аҳамиятлилик даражасини ҳис қилиш ва англаш.*

Шарт-шароитлар: Машқ тинчлантирувчи, бир маромдаги мусиқа садолари остида бажарилиши зарур. Бунда матн ўқиётган бошловчи овозининг қандай оҳангда эканлиги ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ўйиннинг бориши:

Иштирокчиларга олтига варақ тарқатилиб, мана шу қоғозларга ўз ҳаётларидаги энг қадрли нарсаларни аҳамиятлилик даражасига кўра ёзиб чиқишлари сўралади. Кейин варақлар шундай аралаштириладики, энг қадрли нарса ёзилган варақ охирида туриши керак. Бошловчи иштирокчиларга қандайдир ҳодиса рўй бериб, биринчи варақда ёзилган қадриятдан маҳрум бўлганликларини ҳис қилиб кўришларини таклиф қилади. Сўнгра бошловчи иштирокчилардан шу қадрият ёзилган қоғозни ғижимлаб улоқтиришни ва ҳаётни ана шу қадриятсиз тасаввур қилиб кўришларини сўрайди.

Шу тариқа ҳар бир қадриятдан воз кечиб борилади. Шундан сўнг иштирокчиларга қадриятдан ажралаётган вақтда қандай ҳиссиёт, қандай туйғуни ҳис қилганлигини эслаш таклиф қилади. Кейин бошловчи мўъжиза рўй бериб, қадриятларни бирма-бир қайтариш имконияти туғилганлигини эълон қилади ва ғижимланган қоғозларни бирма-бир қайтариб олади. Сўнг иштирокчилардан қадриятларнинг йўқотилган пайтдаги ҳолати ва ғижимланган қоғозларга ёзилган ҳолатини солиштириб, йўқотилган пайтдаги қадриятларни ҳозир ҳам худди шундай кадр-қимматга эгами ёки йўқми эканлигини сўрайди. Агар гуруҳ аъзолари қадриятларни аҳамиятига кўра ўринларини алмаштирган бўлса, буни ҳам баён қилишлари керак. Машғулот сўнггида бошловчи натижаларни муҳокама қилиб, хулосаларни баён этади.

Диққат! Машғулот жараёнида иштирокчилар кучли руҳий кечинмаларни, зўриқишларни ҳис қилишлари мумкин. Шунинг учун машғулот ортиқча шовқин-суронсиз ўтишига, ортиқча овозлар бўлмаслигига, иштирокчиларнинг бир-бирига ҳалақит бермаслигига ва бегона одамларнинг

хонага кирмаслигига эътибор бериш лозим. Шу билан бирга бошловчи ҳам иштирокчиларга диққат-эътиборли бўлиши зарур.

«Мумкин эмас...»

Ўйиннинг бориши:

Гуруҳ иккига бўлинади. Биринчи гуруҳ ўз истак-хоҳишларини баён қилади, иккинчи гуруҳ эса бунга рад жавобини бериши керак. 10 минутдан кейин гуруҳлар ўз ўринларини алмашади. Ўйин тахминан қуйидагича бошланиши мумкин:

- Мен бугун кечкурун дискотекага бормоқчи эдим.

- Йўк, мумкин эмас, кеч бўлиб қолади.

Ўйиндан сўнг хоҳишларни рад қилиш учун қўлланилган далиллар, уларнинг сабаблари ва мазмуни таҳлил қилиб чиқилади. Бошловчи қуйидагича хулоса қилса бўлади: «Асосли ва асоссиз рад этишлари бор. Кўпинча сизга баъзи тақиқлар асоссиздай туюлиши мумкин, бироқ уларда ҳам мақсад, мазмун борлигини инкор эта олмаймиз. Агар биз истагимиз нега рад этилаётганлигини англасак, тушунсак, бунга кўнишимиз осонроқ бўлади. Баъзан ўзимиз қилаётган ҳатти-ҳаракатларимиз, истагимиз ноўрин эканлигини ҳам англаб турамыз. Бундай ҳолда тушунишимиз қийин бўлган кечинмаларни ҳис қиламыз».

Низоли вазиятлар ўйинлари.

«Низоли вазиятларни ҳал этиш».

Мақсад: Низони бартараф этувчи ҳаракатлар намунасини ҳавола этишдан иборат (айни ҳолатда бу - ўз-ўзига ишончли ҳулқ-атвор кўринишидир). Иштирокчиларни «ичи пуч» низоларнинг сабаблари билан таништириш. «Ижтимоий хавфли» вазиятлардан конструктив (ижобий ечим топган ҳолда) чиқиб кета олиш ва низодан четда қолиш малакаларини шакллантириш.

Материаллар: Вазиятлар баён этилган 3 хил рангли қоғозлар.

Вазиятлар:

N1: «Тенгқурларинг ҳали бирор марта сигарет чекиб кўрмаганингни мазах қилиб устингдан кулишаяпти. Улардан бири сенга: «Сен ҳали ёш боласан ва бундай жиддий ишлар билан шуғулланиш сенга эрталиқ қилади», - деди. Унинг гапи сенга жуда оғир ботди ва Сен унга жавоб беришга қарор қилдинг.

N2: Хулқи яхши бўлмаган тенгқурларингдан бири кечкурун қаердадир ўтадиган кечага сени таклиф қилаяпти. У бола (қиз) спиртли ичимлик истеъмол қилади ва ҳатто сигарет ҳам чекади. У сенга: «Юр, бир дам олиб келамиз, сен ахир катта йигитсан-ку (қизсан-ку), уйингдагилар сенга рухсат беришади-ку», - деяпти. Бу вазият сени безовта қиляпти ва сен унга рад жавобини бермоқчисан.

N3: Агрессив ҳолатдаги киши иккинчи - ўзига ишонган ва эътироз билдираётган одамни спиртли ичимлик ичишга ундаяпти.

Ўйиннинг бориши: Ўйин 20 минут давом этади.

1. Бошловчи кўпинча учрайдиган низоли вазиятларнинг сабабларини айтади ва уларнинг олдини олиш ёки улардан чиқишнинг қадам-бақадам босқичларини санаб ўтади.

«Ичи пуч» низоларнинг сабаблари:

Кўпинча одамлар ўртасидаги низоли муносабатларнинг сабаби - улар бир-бирларини ёки бирон муаммога нисбатан шеригининг муносабатини охиригача яхши тушунмаслигидадир. Бундай вазиятларда суҳбат келишиш йўналишида эмас, балки ўзаро талаблар қўйиш даражасида олиб борилади. Кўп жиҳатдан, бу хил ҳаракат услубини танлашнинг сабаби низоли вазиятлардан чиқиш тажрибасининг йўқлиги ва низоларни конструктив ҳал эта олмаслиқдир.

Низони конструктив ҳал этиш учун ҳар икки томонни нима қониқтирмаётганлигини аниқлаб олиш зарур. Бунинг учун эса бир неча қадамдан иборат бўлган қуйидаги алгоритмни ўзлаштириб олган маъқул:

***Муаммонинг моҳиятини ва айти пайтда нимани ҳис этаётганлигини тушутиринг. Муаммо ҳақидаги ўз фикрингизни тўла баён этинг.

Ушбу вазиятдан чиқиш ечимини, ўз талабингиз ва илтимосингизни айтинг.

***Сизнинг талабингиз юзасидан шерингизнинг фикрини аниқланг.

*** Шерингизнинг самимий гаплари ёки у таклиф этган ечим учун унга ташаккур билдиринг.

2.Бошловчи иштирокчилар орасидан N3 вазиятни ижро этиш учун кўнглиларни чақиради ва бу ўйин орқали низоли вазият келиб чиқишининг олдини олиш имконияти намоён этилади. Муҳокама.

3. Гуруҳ учликларга бўлинади.

Ҳар бир учликда учта вазият ўйин тариқасида ижро этилади (ҳар бир иштирокчи агрессив, низодан чиқа олувчи ва ўзига ишонган одам ролида ҳамда кузатувчи ролида иштирок этиши шарт).

4.Ҳар бир вазият ижро этилганидан кейин кузатувчилар ўз таассуротлари билан ўртоқлашадилар.

5.Ўйин ниҳоясида иштирокчилар ўз кечинмалари ҳақида фикр алмашадилар, қандай ижобий натижаларга эришилганлиги ёки муваффақиятсизликларнинг сабаблари муҳокама қилинади.

Мулоқот мавзусига тегишли ўйинлар.

«Бузуқ телефон» машқи.

Мақсад: Маълумот узатишдаги бузилишларни англаш.

Маълумотни англаган ҳолда идрок қилиш ва фаол тинглаш услубини ўзлаштириш.

Йўриқнома: «Ушбу машқимизда 6 киши иштирок этиши керак. Бунда 5 киши хонадан ташқарида пойлаб туришади, 1 киши эса хонада қолади. Мен хонада қолган одамга оғзаки топшириқ айтаман. Бу одам иложи борица ҳамма топшириқни эслаб қолади ва иккинчи (хонадан ташқарида турганлардан бирига) одамга айтади. Иккинчи одам учинчисига, учинчиси

тўртинчисига ва ҳ.к. Биз эса маълумотлар қандай узатилишини кузатиб турамыз. Кейин эса худди шу жараёни муҳокама қиламиз».

5 та ўқувчи хонадан чиққанидан кейин бошловчи қолган 1 кишига куйидагича топшириқ айтади: «Сиз мактаб директорининг муовинисиз. Директоримиз Собир Комилович Сизни анча пойладилар. Лекин келмаганингиздан сўнг сизга мен орқали топшириқ айтиб кетдилар. Айтдиларки, у киши ҳозир бизга Япония аппаратурасини олиш учун ҳужжатларни расмийлаштиришга кетдилар, у ердан чиқиб районда кенгайтирилган йиғилишга борар эканлар. Агар улар соат 12 гача келмасалар ўқитувчилар мажлисини ўзингиз ўтказар экансиз, бу мажлисда 8 «б» синфнинг давоматини кўриб чиқиш керак. Кейин соат 15.00 да мактабимизга Польшадан келаётган меҳмонларни кутиб олиш учун аэропортга 1 та «Нексия» билан 1 та «Дамас» автомашинасини чиқариш керак экан. Яна айтдиларки, соат 17.00 да ХТБнинг ижтимоий таъминот бўлиmidан гўшт келар экан. Ҳамма ўқитувчиларга 2 килограммдан гўшт тарқатиб директорининг улушини холодильникка солиб қўйсангиз ўзлари келиб олиб кетар эканлар».

Шундан сўнг маълумотлар бирин-кетин кириб келаётган ўқувчиларга узатила бошлайди.

Машқ сўнгида одатда маълумотнинг бузилиши кузатилади. Машқда иштирок этган ўқувчилар видео ёрдамида маълумот мазмунини билиб оладилар. Шундан сўнг ўқувчиларга ҳар қандай маълумотни биринчи манбадан олиш зарурияти айтиб ўтилади. Маълумотларнинг бир кишидан иккинчи кишига ўтиши натижасида у қанчалик ўзгариб кетиши пайдо бўладиган миш-миш гапларга асос бўлиши айтиб ўтилади.

Маълумот узатишдаги хатоларни бартараф этиш мақсадида фаол тинглашни ўрганиш машқи таклиф этилади. Бу машқ йўриқномасига кўра ҳамма ўқувчилар уч кишилиқ гуруҳларга бўлинадилар. Бу гуруҳдаги уч ўқувчи уч хил ролда иштирок этади: гапирувчи, тингловчи ва назоратчи.

Гапирувчи ҳаётдаги бирор бир воқеани айтиб беради ва тингловчи бу воқеани иложи борида эсида олиб қолиб, қайтадан такрорлаб айтиб бериши керак. Назоратчининг вазифаси йўл қўйилган хатоларни айтишдан иборат. Гуруҳдаги ҳар бир иштирокчи учта ролдан бирортасида иштирок этиши шарт. Ушбу машқни бажариш орқали иштирокчилар вербализация, яъни фаол тинглаш методини ўзлаштирадилар.

Шахсларо муносабатлар ва низоли вазиятларни ҳал этиш усуллари.

Мақсад: Ролли ўйин орқали ҳамкорлик муносабатлари ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш.

Бошловчи 10 та ўқувчини хонанинг ўртасига таклиф этади. Улар икки қатор бўлиб, бир-бирларига қарама-қарши туришади ва улар олдида йўриқномага биноан вазифа қўйилади.

Йўриқнома: «Тасаввур қилинг, сиз иккита мактабнинг вакиллари сиз. Яқинда физика фанидан икки кунлик олимпиада бўлиши керак, лекин олимпиаданинг қаерда бўлиши ҳали аниқ эмас. Биринчи қатор - А томон - биринчи мактаб вакиллари, иккинчи қатор эса - В - томон - иккинчи мактаб

вакиллари. Олимпиада кимнинг мактабида ўтиши ҳозирги сизнинг ҳаракатингизга боғлиқ. Ҳар бир томондаги ўқувчи иложи борида қаршисидаги шеригини ҳар хил ваъдалар, таклифлар билан ўз томонига оғдириб олишга ҳаракат қилиши керак. Лекин бу мулоқот сўзсиз - имо-ишоралар ёрдамида ўтиши керак. Қайси томонга ўтилса, олимпиада шунинг мактабида ўтади. Бунинг учун сизга икки минут вақт берилади».

Ўқувчиларнинг мулоқоти тугагандан сўнг бажарилган вазифа таҳлил этилади. Иштирокчилар жойларига ўтирганларидан сўнг бошловчи бўлиб ўтган ечим вариантларини флипчартга ёзади. Ушбу музокарадаги муносабатлар қуйидагича бўлиши мумкин.

1. А-Б. А томон Б томонга ўтади ва Б жойида қолади. Муносабатларнинг бу тури Б нуқтаи назаридан қараганда рақобат деб аталади.

2. А-Б. А томон жойида қолади, Б томон эса А томонига ўтади. Б нуқтаи назаридан қараганда бу хил муносабат ён бериш деб аталади.

3. А-Б. А ҳам Б ҳам бир-бирларининг томонига ўтишмайди ва ўз жойларида қолишади, бу хил муносабат пассивлик, яъни масалани ҳал этишдан қочиш дейилади.

4. А-Б. Тўртинчи муносабат типи компромисс деб аталади. Бизнинг мисолимизда олимпиада 3-бир мактабда ўтказилиши таклиф этилади.

5. А-Б. Бу муносабат тури ҳамкорлик деб аталади. Ва бунда муаммо иккала томоннинг манфаатлари ҳисобга олинган ҳолда ҳал этилади. Яъни олимпиаданинг бир куни бир мактабда, иккинчи куни эса иккинчи мактабда ўтади. Бу ҳолда иккала томоннинг қизиқишлари қондирилади. Ва ҳеч қайси томон ўзини камситилган деб ҳис этмайди.

Бу машқ хулосасига кўра, мулоқотнинг ҳамкорлик услуби энг самарали ва конструктив бўлиб ҳисобланади.

Машғулотнинг иккинчи ярми низоли вазиятларни ҳал этишга қаратилган бўлиб, ўқувчилардан бирон-бир низоли, муаммоли вазиятни айтиш сўралади. Ушбу низоли вазиятнинг турли ечимлари ўқувчилардан сўралади ва ҳар бир таклиф этилаётган вариант бирон муносабат турига тааллуқли деб топилади. Одатда, муаммоли вазият ечимларидан ҳамкорликка тааллуқли бўлган вариант низоли ҳал этишдаги конструктив йўл бўлиб ҳисобланади. Бир неча низоли вазиятларни таҳлил этиш орқали ўқувчилардан ушбу хулоса мустаҳкамланади.

«Автобусда».

Мақсад: Ўқувчиларда муомала маданиятини шакллантириш, шахслараро муносабатларни ижобий ривожлантириш.

Иштирокчилардан бири автобусдаги безори ролини ўйнайди, қолганлар эса йўловчилар. Безори автобусдаги иккита ўриндикни эгаллаб олиб, бирига ўзи ўтирибди, бирига эса магнитофонини қўйган. У ҳеч кимга жой бермоқчи эмас. Йўловчилардан ҳар бири безори билан тил топишиб унинг ёнига ўтиришга ҳаракат қилиб кўриши керак. Шарт шуки - мақсадга жанжалсиз эришиш лозим.

«Авлодлар ўртасидаги низо».

Мақсад: Ўқувчиларда муомала маданиятини шакллантириш, шахслараро муносабатларни ижобий ривожлантириш.

Бунда уч киши иштирок этади - йигит, қиз ва катта ёшли одам. Авлодлар ўртасида «Эҳ, ҳозирги ёшлар...» қабилида тақлид уюштирилади. Йигит ва қизнинг вазифаси: имкон борича хушмуомалалик билан низодан қочиш. Жюри аъзолари ҳар бир ўқувчининг ҳаракатини баҳолаб боради.

«Орқадаги ёзувлар».

Иштирокчиларнинг орқаларига варақ маҳкамлаб қўйилади. Ҳамма иштирокчилар хонада хоҳлаган одамнинг олдига бориб унинг орқасидаги қоғозга бу одамнинг нимаси ўзига ёкишини ёзиши керак. Вазифани мукаммаллаштириш ҳам мумкин. Масалан, ўша одамда нимани ўзгартиришни хоҳлашини ёзиши мумкин.

Информацияни (маълумотни) сўзсиз узатиш.

Бу ўйинда бошловчи йўналтириб турувчи ролини бажаради. Бошловчи шундай тушунтириш беради: «Ҳозир бир киши хонадан ташқарига чиқиб туради, қолганлар эса унга қанақа маълумотни айтиш лозимлиги ҳақида келишиб олишади. Мен уни чақираман, шунда бутун гуруҳ имо-ишора, турли қилиқлар ва юз ҳаракатлари билан унга шу информацияни узатишга ҳаракат қилишади. Чақирилган одамнинг вазифаси - гуруҳ унга айтмоқчи бўлаётган маълумотни англаб олишдан иборат».

Бошловчига эслатма: Одатда, ўсмирлар ўйин муҳитидан ножўя хатти-ҳаракатларни бажариш учун баҳона сифатида фойдаланишлари мумкин. Албатта, бу ўйинда ножўя ҳаракатлар бўлиши табиий, лекин кимки вазиятдан шўхлик ва ҳазил-хузул учун фойдаланмоқчи бўлса, уни ўйнаётган гуруҳининг ўзи тартибга келтириб қўйиши керак. Бу усулнинг муҳим таъсир кучига эгалигини ҳисобга олиб, уни жамоатчиликдан ҳоли ва шовқин кам бўлган махсус хоналарда ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Икки қўллаб кўришиш.

Иштирокчиларнинг ҳаммаси доира шаклида ўтиришади. Қўллар бир-бирига бирлаштирилган бўлади. Иштирокчилар бирваракайига хоҳлаган томонидаги (чап ёки ўнг ёнидаги) кишига саломлашиш учун қўшқўллаб қўл узатади. Униси эса қўлларини ёнидагисига узатиши мумкин ва биринчи иштирокчига навбат етгунича шу ҳолда давом этади. Шундай қилиб бир нечта мос келмаслик ҳолати кузатилиши табиий. Ана шунда қанақанги қий-чув кўтарилишини кўрасиз!

Бу ўйинни бир неча бор такрорлаш нафас ростлаш ва тинчланиш учун фойдалидир.

